

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA SAVOD VA HUSNIXATGA O'RGATISH
METODIKASI HAMDA O'QUVCHILARDA O'QISHGA QIZIQISHNI
SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI**

Abdukarimova Xolida Shavkat qizi

Xalqaro Nordik universiteti talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim tizimida savod va husnixatga o'rgatishning metodik asoslari, dars jarayonini samarali tashkil etish yo'llari hamda o'quvchilarda o'qishga barqaror qiziqishni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari keng yoritib chiqdim. Shuningdek, interfaol metodlar, o'yin texnologiyalari, individual yondashuv va motivatsion muhit yaratishning amaliy usullari tahlil qildim. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari asosida darsni tashkil etishning samarali modeli taklif etdim.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, savod o'rgatish, husnixat metodikasi, o'quv motivatsiyasi, interfaol ta'lim, pedagogik texnologiya, individual yondashuv, ta'lim samaradorligi.*

Boshlang'ich ta'lim inson hayotidagi muhim bosqich bo'lib, aynan shu davrda o'qish va yozish ko'nikmalari shakllanadi. Savod va husnixat darslari nafaqat texnik malakalarni egallash, balki tafakkur, nutq, estetik did va ijtimoiy moslashuv jarayonining rivojlanishiga turtki beradi. O'quvchining o'qishga bo'lgan dastlabki munosabati aynan 1-sinfdan kelib chiqadi. Shu sababli bu bosqichdagi metodik yondashuv puxta o'ylangan va ilmiy asoslangan bo'lishi lozim. Aynan bu davrda o'qishga, yozishga va maktab muhitiga o'qituvchiga nisbatan dastlabki munosabati shakllanadi. Savod o'rgatish va husnixat darslari bu jarayonning dastlabki asosiy tarkibiy qismi bo'lib, nafaqat bilim berish, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirishning asosiy bosqichining ilk davrlaridir. 7 yoshli bola uchun maktab yangi olam. Bola o'yin davridan o'quv faoliyatiga o'tadi. Shu sababli o'qituvchi bu o'tish davrini psixologik jihatdan to'g'ri boshqarishi kerak. Agar savod va husnixat darslari qiziqarli va tushunarli tarzda olib borilsa, o'quvchi bilim olishni nafaqat majburiyat emas, balki qiziqarli faoliyat sifatida qabul qiladi.

Savod o'rgatish jarayoni bu tovush va harfni o'zaro bog'lash, bo'g'in hosil qilish, so'z va gaplarni o'qish hamda mazmuni tushunish kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi. Husnixat esa yozuvning grafik to'g'riligi, aniqligi va estetik ko'rinishi jamlaydi. Bu ikki yo'nalish o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, bir-birini chambarchas to'ldiradi. Savod o'rgatish metodikasi boshlang'ich ta'lim jarayonining eng mas'uliyatli bosqichlaridan biridir, u o'quvchining keyingi o'quv faoliyati uchun poydevor yasaydi. Mazkur jarayon o'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirish bilan birga, tafakkur, nutq, diqqat va xotirani rivojlantiradi. Savod o'rgatishning mazmuni shundan iboratki u tovush va harf o'rtasidagi bog'lanishni anglash, bo'g'in va so'zlarni o'qish, matnni tushunish hamda

fikrni yozma ravishda ifodalash ko'nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirishni nazarda tutadi. Savod o'rgatish jarayoni, avvalo, o'quvchilarda fonematik eshitish qobiliyatini rivojlantirishdan boshlanadi. Fonematik eshitish bu nutq tovushlarini aniq farqlash, ularni so'z tarkibida ajrata olish va ketma-ketligini belgilash qobiliyatidir. O'quvchi dastlab tovushni eshitadi, so'ng uni talaffuz qiladi, keyin esa mazkur tovushning grafik ifodasi harf bilan tanishadi. Shu tariqa og'zaki nutq va yozma nutq o'rtasida mustahkam bog'lanish hosil bo'ladi. Jarayon izchillik va tizimlilik asosida tashkil etilganda, o'quvchi har bitta yangi bilimni avvalgisiga tayangan holda o'zlashtiradi. Amaliyot davomida shuni ko'rdimki, savod o'rgatishda turli metod va usullarning birgalikda qo'llanilishi yuqori samaradorlik beradi.

Tovushli tahlil usuli savod o'rgatishning asosiy metodlaridan biri hisoblanadi. Ushbu usulda o'quvchilar so'zlarni tovushlarga ajratadi, tovushlarning o'rni va ketma-ketligini aniqlaydi hamda ularni tegishli harflar bilan bog'laydi. Masalan, o'qituvchi ma'lum bir so'zni talaffuz qiladi, o'quvchilar esa undagi birinchi, o'rta yoki oxirgi tovushni ajratadi. Bu mashqlar o'quvchilarning eshitish sezgirligini oshiradi, nutq apparatini faollashtiradi va analitik tafakkurni rivojlantiradi. Tovushli tahlil orqali o'quvchi so'z tuzilishini ongli ravishda anglaydi.

Bo'g'inli o'qish usuli ham savod o'rgatishda ilg'or o'rin tutadi. Dastlab sodda va ochiq bo'g'inlar o'rgatilsa, keyinchalik yopiq hamda murakkab bo'g'inlarga o'tiladi. Bo'g'inlarni qo'shish, ajratish va ularni turli kombinatsiyada o'qish mashqlari o'quvchining o'qish tezligini oshiradi. Bo'g'in kartochkalari, magnitli harflar yoki interaktiv materiallar ,vizual o'yinlar bilan ishlash jarayonni yanada qiziqarli va samarali borishini ta'minlaydi. Bu usul mexanik o'qishdan ongli o'qishga o'tish bosqichida yordam beradi.

Ko'rgazmali-amaliy metod savod o'rgatishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda qo'llaniladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'proq ko'rish orqali idrok etadi. Shu sababli rasmlar, predmetli kartochkalar, sxemalar va vizual vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, rasm asosida so'z tuzish yoki matn mazmunini tasvirlash orqali o'quvchining tasavvuri kengayadi va lug'at boyligi ortadi. Ko'rgazmalilik o'quv materialini aniq va tushunarli qiladi.

O'yinli metodlar esa savod o'rgatish jarayonining tabiiy va samarali shakli . O'yin elementlari o'quvchilarda ijobiy emotsiya uyg'otadi, darsga qiziqishni kuchaytiradi shu bilan birga faollikni oshiradi. "Yo'qolgan harfni top", "Bo'g'indan so'z tuz", "Zanjirli o'qish", "Tezkor o'qish" kabi mashg'ulotlar orqali o'quvchilar mustaqil fikrlashga, tez va aniq javob berishga tayyor bo'ladi. O'yin jarayonida o'quvchi bilmagan holda o'rganadi, bu esa bilimning mustahkam o'zlashtirilishiga xizmat qiladi. Hozirgi vaqtda vizual o'yinlar ko'proq boshlang'ich sinf o'quvchilariga qiziq bo'lib kelmoqda. Raqamli texnologiyalar davrida bola telefon kompyuter o'yinlari, televizorga bog'lanib qolgan shu sababli pedagog vizual o'yinlar tashkil etishi kerak. Topqir.uz , NeuralWriter, Wordwall, STEAM shu kabi o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Savod o'rgatish jarayonida o'quvchining mustaqil fikrlashi va matn mazmunini tushunishi

ustuvor vazifa bo'lishi lozim. Faqat harflarni qo'shib o'qish yetarli ham emas; o'qilgan matnning mazmunini anglash, savollarga javob berish, voqealar ketma-ketligini tushuntirish muhim ahamiyatga ega. Mazmunli o'qish o'quvchining tafakkurini rivojlantirib, nutqini boyitadi. Shu maqsadda savod o'rgatish jarayonida kichik matnlar ustida suhbat, savol-javob, rolli o'qish kabi mashg'ulotlar bilan olib borish tavsiya etiladi. Savod o'rgatish metodikasi izchil, tizimli va o'quvchining yosh xususiyatlariga mos ravishda tashkil etilganda yuqori natija beradi. Turli metod va amaliy yondashuvlarning uyg'un qo'llanilishi o'quvchilarda nafaqat o'qish texnikasini, balki ongli va mazmunli o'qish ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Bu esa boshlang'ich ta'limning keyingi bosqichlari uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Husnixat darslari boshlang'ich ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular o'quvchining nafaqat yozuv malakasini, balki umumiy psixofiziologik rivojlanishiga ham o'z hissasini qo'shadi. Yozuv jarayonida qo'l barmoqlari, bilak va ko'z harakati o'zaro muvofiqlashadi, natijada mayda motorika faol rivojlanadi. Mayda motorikaning takomillashuvi esa nutq rivoji, tafakkur faolligi va diqqat barqarorligi bilan bevosita bog'liqdir. Shuningdek, muntazam va puxta tashkil etilgan husnixat mashg'ulotlari o'quvchini sabrli, tartibli va mas'uliyatli bo'lishga o'rgatadi. Chiroyli va ozoda yozuv shaxsning ichki intizomi hamda ishga jiddiy munosabatini aks ettiruvchi ko'rsatkichdir. Husnixatni o'rgatish jarayoni eng avvalo gigiyenik va texnik talablarga rioya qilishdan boshlanadi. O'quvchining partada to'g'ri o'tirishi, daftarni ma'lum burchak ostida joylashtirishi hamda ruchkani to'g'ri ushlashi yozuv sifatiga I ta'sir ko'rsatadi. Noto'g'ri o'tirish yoki ruchkani siqib ushlash qo'lning tez charchashiga, harflarning notekis yozilishiga bevosita sabab bo'ladi. Shu sababli dastlabki bosqichdayoq to'g'ri yozuv madaniyatini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biridir. Keyingi bosqichda grafik elementlarni o'rgatishga e'tibor qaratiladi. To'g'ri chiziqlar, egri chiziqlar, yoy va ilmoq shakllar elementlar alohida mashq qilinadi. Har bir harf ana shu elementlarning ma'lum tartibdagi birikmasidan iboratligi o'quvchiga tushuntiriladi. Harfni yozishdan avval uning tuzilishini tahlil qilish, qaysi chiziqdan boshlanishi va qayerda tugashini aniqlash yozuvning aniqligi poydevoridir. Bu jarayon o'quvchining kuzatuvchanligi va mantiqiy fikrlashini ham rivojlantiradi. Husnixat mashg'ulotlarida qo'llaniladigan amaliy usullar ham bor. Masalan, harfni avval havoda katta harakat bilan tasvirlash qo'l mushaklarining erkinligini ta'minlaydi va harakat ketma-ketligini ongli ravishda eslab qolishga yordam beradi. Bu usul yozuv jarayoniga tayyorgarlik bosqichi sifatida ishlatishadi. Duskada namunaviy yozuvni bosqichma-bosqich ko'rsatish esa o'quvchiga harakat yo'nalishini aniq tasavvur qilish imkonini beradi. O'qituvchi harfni yozar ekan, uning qaysi nuqtadan boshlanishi, qanday yo'nalishda davom etishi va qanday yakunlanishini izohlab boradi. Bu usul ko'rish orqali idrok etishni kuchaytiradi hamda xatolar sonini kamaytiradi. Individual yondashuv husnixat darslarining muhim shartlaridan biridir. Har bir o'quvchining yozuv tezligi, qo'l harakati va idrok darajasi turlicha bo'lganligi sababli, xatolarni umumiy emas, balki shaxsiy tarzda tushuntirish kerak. O'quvchining xatosini keskin

tanqid qilish emas, balki muloyim tarzda ko'rsatib, to'g'ri variantni amalda namoyish etish samaraliroq natija beradi. Rag'batlantirish mexanizmi ham husnixat darslarida muhim ahamiyat kasb etadi. "Eng ozoda daftar", "Eng chiroyli yozuv" kabi kichik e'tiroflar o'quvchilarda yozuvga nisbatan mas'uliyat hissini oshiradi. Ijobiy baholash o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi va keyingi mashg'ulotlarga qiziqishini kuchaytiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun o'yin yetakchi faoliyat turi. Shuning uchun dars jarayonida o'yin elementlarini qo'llash kerak. Qiziqishni shakllantirish uchun dars boshida motivatsion savol yoki topishmoq berish, rasmlar asosida suhbat tashkil etish samarali natija beradi. Muvaffaqiyat vaziyatini yaratish ham muhim omildir. Har bir o'quvchi kichik yutuq'ini his qilishi kerak. Rag'batlantirish tizimi orqali o'quvchi o'z imkoniyatiga ishonch hosil qiladi. 1-sinfda Har 10-15 daqiqada qisqa 2-3 daqiqalik jismoniy daqiqa (fizkultminutka) o'tkazish tavsiya etiladi. 1-sinflarda ayniqsa ko'z va qo'l mushaklarini bo'shashtiruvchi mashqlar muhim hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini darsga qiziqtirish har bir o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri. Buning uchun 5ta samarali usullardan foydalanish mumkin. Birinchidan, dars boshida qisqa topishmoq, rasmi savol yoki qiziqarli muammoli vaziyat berish o'quvchi diqqatini darhol tortadi. O'yin elementi darsni jonli va qiziqarli qilib, bolalarning darsga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi. Ikkinchidan, har bir o'quvchi darsda kichik bo'lsa-da yutuq his qilishi juda muhim. O'qituvchining tabasumi, olqishi yoki shtampcha berishi o'quvchida o'ziga ishonch hissini shakllantiradi va uni yanada faol bo'lishga undaydi. Uchinchidan, juftlikda yoki kichik guruhda ishlash, rolli o'yinlar o'quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Bu orqali bola o'z fikrini erkin ifodalashga o'rganadi. To'rtinchidan, har bir o'quvchi bir xil sur'atda o'zlashtiravermaydi. Shuning uchun sekinroq o'zlashtirayotgan o'quvchini shoshirmaslik, unga qo'shimcha oson mashqlar berish zarur. Bu individual yondashuv o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini saqlaydi. Beshinchidan, sinfda ijobiy va samimiy muhit yaratish dars samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Mehr va qo'llab-quvvatlash o'quvchining darsga bo'lgan ichki ishtiyoqini mustahkamlaydi. Xulosa qilib aytganda, o'quvchini darsga qiziqtirish uchun faqat bilim berish emas, balki uning his-tuyg'ulari va ichki motivatsiyasiga ham e'tibor qaratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: O'qituvchi, 2011. – 256 b.
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2006. – 180 b.
3. Ibragimov X., Yo'ldoshev U. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2007. – 240 b.
4. Ochilov M. Muallim qalb me'mori. – Toshkent: O'qituvchi, 2000. – 160 b.
5. Karimova V. Mustaqil fikrlash metodikasi. – Toshkent: Sharq, 2000. – 120 b.